

## OLIV TA'LIMDA DARS JARAYONIDAGI O'QUV MAQSADLARINI ANIQLASHNING XUSUSIYATLARI

Mirxodjayeva D.B.

“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası” PhD, dotsent

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

[dilorommirxodjaeva15@gmail.com](mailto:dilorommirxodjaeva15@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanishi va pedagogik jarayon avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanishi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, dars jarayoni, o'quv maqsadlari, ta'lim tizimi, o'qitish usullari, ta'lim samaradorligi, innovatsion pedagogika, o'quv jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, bilim

### KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida dars jarayonining samaradorligini oshirish va talabalar bilimni chuqurlashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonida belgilangan maqsadlarning aniq va to'g'ri belgilanmaganligi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, dars jarayonidagi o'quv maqsadlarini aniqlash tamoyillari va usullarini o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzu doirasida o'quv maqsadlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida o'quv maqsadlarini aniq belgilash nafaqat talabalar bilim darajasini oshirish, balki pedagoglarning dars samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika usullari va zamonaviy baholash tizimlari asosida o'quv maqsadlarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari ham o'rganiladi.

Mazkur tadqiqot oliy ta'limda dars jarayoni samaradorligini oshirish uchun o'quv maqsadlarini aniqlashning muhim jihatlari ochib berishga qaratilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berishga asoslanadi. O'qituvchi har bir mavzu va dars uchun o'quv maqsadini belgilab olishi lozim. Bu esa dars jarayonini sifatli o'ishini ta'minlab beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon, o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo'ysunadilar. ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o'zaro uyg'unlashtiriladilar. Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir.

An'anaviy didaktikada ham ko'pchilik olimlar (Babanskiy Yu.K., Bezrukova V.S., Galperin P.D, Lerner I.Ya., Krayevskiy V.V., Mahmutov M.I., Talizina N.F. va boshqalar) tomonidan o'quv maqsadlarini belgilash usullari, ularni aniqroq ifodalash shakllari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar va bu masalalar bo'yicha ma'lum tajriba ham to'plangan. Jumladan, zamonaviy darsning ta'lim berish, tarbiyalash va

talaba shaxsini kamol toptirish maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llari bo‘yicha ma‘lum darajada nazariy va amaliy ma‘lumotlar mavjud. Lekin pedagogik texnologiya tarafdorlari eng avvalo an‘anaviy o‘quv jarayonini, aniqrog‘i o‘quv maqsadlarining o‘ta noaniq belgilanishini va ularga erishganlikni o‘lchab bo‘lmasligini qattiq tanqid qildilar [1].

Haqiqatan ham, o‘qituvchi (uning timsolida maktab) qanday natijaga erishishni xoxlaydi? Bir qarashda bu savolga javob berish osonga o‘xshaydi. Biror fan yoki uning bo‘limini o‘qitishda o‘qituvchi o‘z oldiga uni talabalarga tushuntirishni, mazmunini o‘zlashtirilishini va buning natijasida talabalar uni amalda qo‘llay olishlariga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Lekin, «tushunish», «o‘zlashtirish», «anglash», «qo‘llash» degani nimani bildiradi? qo‘yilgan maqsadga erishilganligini o‘qituvchi qanday aniqlashi mumkin? Agar talabaning qo‘yilgan maqsadga erishgani yoki erisha olmaganligini aniqlash usuli mavjud bo‘lsa, o‘qituvchi qo‘llagan uslublarining to‘g‘riligiga, o‘z mehnati samarasiga ishonishi yoki talabalar qanday yordamga muhtoj ekanligi haqida ishonchli ma‘lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lar edi.

An‘anaviy pedagogikadagi bu holatni har qanday tanqid ham birdaniga o‘zgartirilmadi, chunki o‘quv yurti (u bilan birga o‘qituvchi ham) ijtimoiy talabni o‘ta umumlashgan holda oladi. Demak, jamiyat ta‘lim tizimiga umumiy tarzda talab qo‘yar ekan, undan kelib chiqadigan o‘quv yurti vazifalari, shuningdek, fanlar dasturlaridagi o‘quv maqsadlar ham umumiy tarzda bayon etilishi tabiiydir. Shuni ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga ta‘lim standartlarining qabul qilinishi, ularda tayyorlanayotgan kadrlarga qo‘yiladigan yagona talablarning aks ettirilganligi natijasida o‘qitish maqsadlarini aniqlashtirishga erishilmoqda [2].

Biz fanning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda, o‘quv maqsadlarini fan (kurs) va uning bo‘limlari darajasida aniqlashtirish bilan chegaralanamiz. Chunki, aynan mana shu joyda o‘quv jarayoni texnologik usulda loyihalash bevosita namoyon bo‘ladi. Va aynan shu darajada o‘qituvchi fan va uning bo‘limlari ustida ishlab, o‘quv maqsadlarini aniqlaydi va ular asosida o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Endi, pedagogik amaliyotda mustahkam o‘rin olgan o‘quv maqsadlarini aniqlashning quyidagi an‘anaviy usullari haqida to‘xtalamiz:

1. Maqsadlarni o‘rganiladigan o‘quv materialining mazmuni orqali aniqlash. Boshqacha aytganda, bunday usulda belgilangan o‘quv maqsadlari o‘quv jarayonini tashkil etishning amaliy (amalga oshiruvchi) qismi ham bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday o‘quv maqsadlarni o‘ta noaniq deb hisoblab, tanqid qilganlar.

2. O‘quv maqsadlarni o‘qituvchi faoliyati orqali aniqlash. O‘qituvchi o‘quv maqsadlarini olinadigan natijaga taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lmagan holda harakat qiladi, chunki o‘quv maqsadlari bu usulda aniqlanganda olinadigan natijaning o‘zi aniq ifodalanmaganligi ko‘rinib turibdi.

3. O‘quv maqsadlarini talabaning intellektual, hissiy sohaga oid ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash. Bunday o‘quv maqsadlari o‘quv yurti fan yoki fanlar sikli darajasidagi umumiy maqsadlarni ifodalaydilar, lekin ular hatto dars yoki darslar turkumi maqsadlarini ham anglatmaydilar.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday maqsadlarni butunlay inkor etadilar. Haqiqatan ham, ularga erishganlikka yoki bir dars davomida bu maqsadlarga, hatto yaqinlashib borilganligiga ham ishonib bo‘lmaydi. Bu usulda maqsadga erishish yo‘nalishlari haqida ham fikr yuritib bo‘lmaydi, chunki ular nihoyatda «jarayonli» shaklda ifodalangan. Bizning fikrimizcha bu usul butunlay samarasiz emas, faqat maqsadlarga jiddiy aniqlik kiritish kerak. Bu o‘rinda ham maqsadlarni aniqlashtirishning pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan usullari yordam beradi (D. Kratvol - affektiv soha).

4. O‘quv maqsadlarini talabalar hatti-harakati va faoliyati orqali belgilash. Masalan: «kvadrat ildizli tenglamani yechish», «aylana uzunligini hisoblash», «o‘simlikning to‘qimali tuzilishini o‘rganish,» «gaz taqsimlash mexanizmini qismlarga ajratish yoki yig‘ish» va h.k.

Bir qarashda o‘quv maqsadlarini bunday ifodalashda darsni rejalash va o‘tkazishga aniqlik kiritilganga o‘xshaydi. Biroq, bu usulda ham eng muhim ko‘rsatkich - o‘qitishdan kutiladigan natija e‘tibordan tushib qolganga o‘xshaydi. Lekin bu natija - talabaning o‘z shaxsi rivojlanishi tomon ichki siljishi bo‘lib, u talabaning u yoki bu faoliyatida o‘z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o‘quv maqsadlarini aniqlash usuli, o‘zining yuqori darajadagi aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. O‘quv maqsadlari talabaning ishonchli o‘lchash va tashqaridan bilib olish mumkin bo‘lgan hatti-harakatida ifodalanib, ular o‘qitish natijalari orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, talabalarning bu hatti-harakatlarini o‘qituvchi yoki ekspert aniq kuzatib baholashi ham mumkin bo‘ladi. Albatta, bu samarali g‘oya dastlab ko‘p qarshiliklarga uchradi. Qanday usul bilan o‘qitish natijasini talaba hatti-harakatlariga o‘tkazish mumkin? Bu o‘tkazishda qat’iy bir xil ma’noni qanday saqlab qolish mumkin? Bu kabi muammolar asosan quyidagi ikki xil usul bilan hal etilganligini qayd qilib o‘tamiz.

1. O‘quv maqsadlarining shunday tizimini yaratish kerakki, uning ichida o‘quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo‘lsin. O‘quv maqsadlarining bunday tizimi pedagogik taksonomiya deb ataladi.

2. O‘quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday aniq va tushunarli tilni topish kerakki, o‘qituvchi bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo‘lsin.

Demak, o‘quv maqsadlarini belgilashga yuqorida qayd qilingan aniqlik kiritish, pedagogik texnologiyaning odatdagi o‘qitish usullaridan tubdan farq qiluvchi dastlabki, eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi [3].

O‘quv maqsadlari ta’lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma’lumki, ta’lim jarayonida ikki tomon: ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi ishtirok etadi. Ta’lim oluvchilar bu o‘rganuvchi o‘quvchi, talaba yoki tinglovchilardir. Ta’lim beruvchilar esa o‘rgatuvchi, o‘qituvchilar yoki ustalardir. O‘quv maqsadlari ta’lim jarayoni ishtirokchilarining qaysi biri tomonidan qaralishiga qarab, o‘rganish va o‘rgatish maqsadlariga ajratiladi. An’anaviy ta’limda odatda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalanadi. Masalan: «O‘quvchilarga qo‘lda suvoq qilish usullarini o‘rgatish». Bunda pedagog tomonidan maqsadning qo‘yilishi uning o‘z faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, bu bilan ta’lim jarayonining aniq

maqsadlariga erishganligini aniqlab bo‘lmaydi. Chunki, ta‘lim jarayonining natijasi, ta‘lim beruvchi ya‘ni o‘rgatuvchining nimaga erishgani bilan emas, balki ta‘lim oluvchi ya‘ni o‘rganuvchining nimaga erishgani bilan o‘lchanadi, Shuning uchun, kelgusida o‘quv maqsadlari deganda o‘rganish maqsadlarini ya‘ni o‘rganuvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan maqsadlarni tushunimiz.

O‘quv maqsadlari (ular ba‘zida o‘quv vazifalari deb ham ataladi) o‘quvchilar hatti-harakatida aniq ifodalanadigan va o‘lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O‘quv maqsadlariga erishganlikni aniqlash va o‘lchash uchun uning mezonlarini bilish lozim. O‘quv maqsadi shunday qo‘yilishi lozimki, unga erishganlikni ko‘rsatuvchi mezonlar orqali aniq xulosa chiqarish va o‘lchash mumkin bo‘lsin.

O‘quv maqsadlari, muayyan ta‘lim jarayoni yakunida ta‘lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi va yangi hosil qilininishi lozim bo‘lgan bilim malaka va ko‘nikmalar hamda hulq tavsifidir.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv maqsadlari oldindan ko‘zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to‘g‘ri tanlash ta‘lim jarayoni uchun o‘ta muhimdir. Buni quyidagi ibora yordamida yaxshiroq tushunsa bo‘ladi: **„qayerga borishni, oxirgi manzilni bilmasdan turib safarga otlanishdan hech qanday ma‘no va naf yo‘q“**.

Nazariy dars va amaliy mashg‘ulot aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlaridir. Har qanday dars, oldindan belgilangan muayyan o‘quv natijalariga erishish maqsadida olib boriladi. Agar darsning maqsadlari aniqlanmasdan o‘tkazilsa, u holda uning mazmuni va didaktik tuzilishi u yoki bu darajada tasodifga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida «aravani quruq olib qochishga» olib keladi. Nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlarning maqsadlari aniq bo‘lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularni didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin. Shu bois, har bir o‘qituvchi, amaliyot va ishlab chiqarish ustalari uchun o‘quv maqsadlarini bilish, to‘g‘ri qo‘ya olish va tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish - ta‘lim jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir nazariy dars va amaliy mashg‘ulotning o‘quv maqsadlari oldindan aniqlanishi lozim. Aniqlangan o‘quv maqsadlari, dars mazmuni bo‘yicha qaysi nazariy materiallarni tanlash, uni utkazish bo‘yicha qanday metodik va didaktik resurslardan foydalanish lozimligini belgilab beradi. Shunday qilib, **har qanday ta‘lim jarayonida o‘quv maqsadlari ta‘lim mazmuni, metodlari va vositalarini belgilar ekan.**

#### **Yo‘naltiruvchi, umumiy va aniq maqsadlar.**

O‘quv maqsadlari ta‘lim jarayonining ko‘lamiga ko‘ra turlicha tarzda ifodalanishi mumkin. O‘quv maqsadlari, pastdan yuqoriga qarab:

- alohida olingan bitta darsning maqsadi,
- fanning biror bo‘limini o‘rganishning o‘quv maqsadlari,
- butun bir fanni o‘rganishning o‘quv maqsadlari,
- biror bir fanlar modulini o‘rganishdan ko‘zlangan o‘quv maqsadlari,
- jarayonining muayyan bosqichi maqsadlari
- butun bir mutaxassislikni egallash bo‘yicha o‘quv maqsadlariga bo‘linadi.

Kichik ko‘lamda (alohida dars, fanning bir bo‘limi uchun) maqsadlar aniq-aniq qilib qo‘yilsa, ko‘lam kattalashgan sari (modulni o‘rganish, mutaxassislikni egalash



uchun) o‘quv maqsadlari umumlashtirib boriladi. O‘quv maqsadlari qamrov ko‘lamiga qarab uch xil turga ajratiladi.

### **YO‘NALTIRUVCHI MAQSADLAR**

Yo‘naltiruvchi maqsadlar eng katta ko‘lamdagi ta‘lim jarayonining maqsadlarini belgilaydi. Masalan, ta‘lim jarayonining muayyan bosqichi (boshlang‘ich ta‘lim, o‘rta umumiy ta‘lim bosqichi) yakunida qo‘yiladigan yoki biror mutaxassislikni egallash bo‘yicha o‘quv maqsadlari. Bu maqsadlar odatda davlat talim standartlarida o‘z aksini topadi va qonuniy hujjat hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayoniga qo‘yilgan umumiy talablarni aniqlaydi va uning umumiy yo‘nalishini belgilab beradi.

### **UMUMIY MAQSADLAR**

Umumiy maqsadlar kichikroq ko‘lamdagi ta‘lim jarayonlariga taalluqli bo‘lib, uning mazmuni yo‘naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqadi. Masalan, biror fan bo‘yicha o‘quv maqsadlari. Umumiy maqsadlar ham har bir fan bo‘yicha tuzilgan davlat ta‘lim standartlari ko‘rinishida belgilanishi mumkin. Umumiy maqsadlar yo‘naltiruvchi maqsadlarni o‘z qamrov ko‘lami darajasida oydinlashtiradi va aniqlashtiradi. Shunday bo‘lsada, umumiy maqsadlar ham ta‘lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va hulq haqida umumiy tasavvurni beradi. U ham o‘z navbatida pastki ko‘lamda yanada aniqlashtirilishi va oydinlashtirilishi lozim bo‘ladi.

### **ANIQ MAQSADLAR**

Aniq maqsadlar eng kichik ko‘lamdagi ta‘lim jarayoniga taalluqli bo‘lib, uning mazmuni o‘z navbatida umumiy maqsadlardan kelib chiqadi. Masalan, biror bir darsning maqsadi, fanni biror bo‘limining o‘quv maqsadi. Aniq maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta‘lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ular biror bir mavzuga yoki biror bir bo‘limga oid dars, amaliy mashg‘ulot bo‘yicha o‘lchanishi mumkin bo‘lgan aniq yakuniy bilim, ko‘nikma, malaka va xulqni ifodalaydi. Shuning uchun ularni ifodalashda, maqsadlar bilan birga, ularga erishish ko‘rsatkichlarini, baholash mezonlarini va bu natijalarga erishish uchun yaratilishi lozim bo‘lgan shart-sharoitlar (asbob-uskunalar, materiallar va boshqa zaruriy vositalar) tavsifini berish ham lozim bo‘ladi. Aniq maqsadlar odatda ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari va ustalari tomonidan ishlab chiqiladi. Shuningdek, bu maqsadlar yuqorida turgan mutasaddi ta‘lim muassasalari, ilmiy-metodik kengashlar tomonidan ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq qilinishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. “Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma. T.:, 2013.
2. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
3. Will personalized e-learning increase deep learning in higher education? S.Manzanares, M.C.Garcia Osorio, C.I.Diez Pastor, J.F.Martin Anton. Information Discovery and Delivery. 47 (1) 53-63 pages.

4. Ашуров, У. Б. Олий таълим тизимида педагогик технологиялар / У. Б. Ашуров. – Тошкент: Фан, 2010. – 256 б.
5. Рахимов, Ш. Олий таълимда таълим жараёнини ташкил этиш / Ш. Рахимов. – Тошкент: Маънавият, 2012. – 198 б.
6. Каримов, А. Таълим жараёнида инновацион технологиялар / А. Каримов. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2015. – 215 б.
7. Норбоев, Д. Олий таълим тизимида таълим жараёнини такомиллаштириш / Д. Норбоев. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2018. – 175 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Олий таълим муассасалари учун ўқув режаларни шакллантириш методологияси. – Тошкент: ЎзОАК, 2019. – 145 б.